

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» «Scientific journal of the Fergana State University» jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir:

Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

O.Shukurov	
Neym neologizmlar xususida	244
G'.Abduvaxobov	
Amaliy tilshunoslik: elektron lug'atlar yaratish konsepsiysi.....	250
N.Maxmudova	
Ornitonimlarning qiyosiy tahlili: o'zbek va ingliz tillarida qush nomlari bilan bog'liq birliklarning ishlatalishi.....	257
H.Davlatova	
Bolalarning aqli va nutqi rivojlanishida oilaning ta'siri.....	262
V.Abdurahmonov	
Alternativ so'roq gaplarning uslubiy-semantik tasnifi.....	267
F.Temirova	
Badiiy diskurs va diskursiv tahlil	271
A.Mirzaev	
Ko`p tillilik va uning yangi tilni o`rganishga ta'siri	276

PEDAGOGIKA

B.Khodjaev, B.Baydjanov	
Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning pedagogik asoslari va muammolari.....	280

ILMIY AXBOROT

M.Abdukamolova	
Yangi O'zbekiston: xotin-qizlar maqomi	288
P.Ro'ziboeva	
"Gilam paypoq" va "Onamning yolg'onlari" hikoyalarida ona obrazining o'xhash va farqli jihatlari	292
Sh.Uralova	
O'zbek va ingliz tilshunosligida idish-tovoq va oshxonanomlari tadqiqot obyekti sifatida.....	295

FANIMIZ FIDOVYLARI

Ilimga baxshida umr	302
Sermaksul ilmiy ijod	303
Bibliografiya	305

O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA IDISH-TOVOQ VA OSHXONA ANJOMLARI NOMLARI TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

НАЗВАНИЯ БЛЮД И КУХОННОЙ УТВАРИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ

AS AN OBJECT OF RESEARCH OF THE NAMES OF DISHES AND KITCHEN EQUIPMENT IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGE

Уралова Шахло Шухратовна¹

¹Уралова Шахло Шухратовна

– Termiz davlat universiteti Pedagogika instituti magistranti.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tilshunosligida maishiy leksika idish-tovoq va oshxona anjomlari tematik guruhining o'rGANIshI tarixi yoritilib, ushbu turkumdagI leksemalarning aniq yo'naliShlarda tadqiq etilayotganligi misollarda izohlangan. Tilshunoslikda leksik birliklarni har tomonlama tadqiq etish, ularni til sistemligi va alohida leksik-semantik guruhlarni tashkil etuvchi so'zlar orasidagi ichki munosabatlarni chuqr o'rganish muhim ahamiyat kasb etishi, tilshunosligida maishiy leksikani tashkil etuvchi til birliklarining etimologiyasi, yasalishi, sinxron va diaxon holati, struktur-semantik, lingvomadaniy va lingvokognitiv tadqiqi aniq tillar misolida o'rganilib, qator ilmiy natijalarga erishilganligi, bu sohada shug'ullanuvchi o'zbek va ingliz tilshunoslarining ilmiy ishlari tahili, ularning har xil nuqtai nazarlarni o'rganish haqida fikr boradi.

Ilmiy tadqiqotda tahlilga tortilgan har bir leksik birlikning til tarixiy manbalarida uchrashi, ma'nolari, shuningdek bu nomning obyektdagi turkiy tillar shevalaridagi variantlari, sohalarga xos nomlarning ishtirokida hosil bo'lgan frazeologik iboralar, onomastik holatlarga ham e'tibor qaratilgan. Nomlarning etimologiyasi, ularning atalish usullari, fonetik, leksik-semantik va grammatic xususiyatlarn hamda ular orasida morfologik va sintaktik nuqtai nazardan yasalgan so'zlar, so'z birliklari ham ishda atroficha yoritilgan

Аннотация

В данной статье описывается история изучения тематической группы бытовой лексики посуды и кухонной утвари в английском и узбекском языкоznании, а также на примерах объясняется изучение лексем данной категории в конкретных областях. На примере конкретных языков изучается важность комплексного изучения лексических единиц в языкоznании, их углубленного изучения в системе языка и внутренних отношениях между словами, составляющими отдельные лексико-семантические группы, структурно-семантических, лингвокультурологических и лингвокогнитивных исследований. языков достигнут ряд научных результатов, проведен анализ научных трудов узбекских и англоязычных языковедов, работающих в этой области, изучение их различных точек зрения.

Основное внимание в исследовании уделяется встречаемости и значению каждой анализируемой лексической единицы в исторических источниках языка, а также вариантам имени в диалектах тюркских языков в объекте, фразеологических выражениях, образованных с участием отраслевых имена, ономастические падежи. В работе подробно описаны этимология существительных, способы их наименования, фонетические, лексико-семантические и грамматические особенности, а также морфологические и синтаксические слова и словосочетания.

Abstract

This article describes the history of the study of the thematic group of household vocabulary dishes and kitchen utensils in English and Uzbek linguistics, and explains with examples the study of lexemes in this category in specific areas. The importance of a comprehensive study of lexical units in linguistics, their in-depth study of the language system and the internal relations between the words that make up separate lexical-semantic groups, the etymology, construction, synchronous and diachronic status of language units. The study of structural-semantic, linguocultural and linguocognitive research on the example of specific languages, the achievement of a number of scientific results, the analysis of scientific works of Uzbek and English linguists in this field, the study of their different perspectives.

The research focuses on the occurrence and meaning of each lexical unit analyzed in the historical sources of the language, as well as variants of the name in the dialects of Turkic languages in the object, phraseological expressions formed with the participation of industry-specific names, onomastic cases. The etymology of nouns, their naming methods, phonetic, lexical-semantic and grammatical features, as well as morphological and syntactic words and phrases are described in detail in the work.

Ключевые слова. Язык, узбекский, английский, лексика, бытовая лексика, тематическая группа, названия блюд, названия кухонной утвари.

Kalit so'zlar. Til, o'zbek tili, ingliz tili, leksika, maishiy leksika, tematik guruh, idish nomlari, oshxona anjomlari nomlari.

Keywords. Language, Uzbek, English, vocabulary, household vocabulary, thematic group, names of dishes, names of kitchen utensils.

KIRISH

Tilshunoslikda leksik birliklarni har tomonlama tadqiq etish, ularni til sistemligi va alohida leksik-semantik guruhlarni tashkil etuvchi so'zlar orasidagi ichki munosabatlarni chuqr o'rganish

muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tilshunosligida maishiy leksikani tashkil etuvchi til birliklarining etimologiyasi, yasalishi, sinxron va diaxron holati, struktur-semantik, lingvomadaniy va lingvokognitiv tadqiqi aniq tillar misolida o'rganilib, qator ilmiy natijalarga erishilgan.

Ma'lumki, idish-tovoq va oshxonan anjomlari nomlari maishiy leksika tematik guruhlaridan biri hisoblanadi. Til haqidagi fanda "maishiy leksika" terminining izohiga mutaxassislar quyidagicha yondoshadilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O.N. Gauchning fikricha, predmet-maishiy leksika deganda idish-tovoq, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buyumlari, gazlama va kiyim-kechak aniq nomlari, shuningdek, ularga tegishli bo'lgan rekvizitlar to'g'risidagi leksemalar yig'indisi tushuniladi [4; 3].

O'tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib, o'zbek olimlari tomonidan leksikaning turli tematik guruhlariga mansub so'zlarni har tomonlama tadqiq qilish ishlari boshlangan edi. Maishiy leksika bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borildi. Bu yo'nalishdagi dastlabki ishlardan biri S. Ibrohimovning monografiyasidir. Ushbu yirik ilmiy asarda Farg'ona shevalaridagi kasb-hunar leksikasiga oid so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning kelib chiqish tarixi, ma'nolaridagi ro'y bergan o'zgarishlar, grammatic tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan [5]. O'zbek tilida chevarchilik leksikasi D.Dadaxonova [6], amaliy san'at leksikasi T.Tursunova [7], kiyim-kechak nomlari M.Asomiddinova [8] tomonidan har tomonlama tahlil qilingan.

XXI asrda ushbu yo'nalishdagi ishlar tizimli davom ettirilmoqda.

SH.Usmonova tomonidan oltoy tillari (jumladan o'zbek tili) va shevalaridagi maishiy leksika semantik-funksional, fonetik va struktur-morfologik aspektlarda tahlil qilingan. Olima tomonidan oshxonaga oid uy-ro'zg'or buyumlari leksik-semantik guruhiga kiruvchi 1) o't yoqish va isitish qurilmalarini ifodalovchi leksemalar, 2) olovni qorishtirish ishlatalidigan buyumlarni ifodalovchi leksemalar, 3) ovqat pishirishga mo'ljallangan idishlarni ifodalovchi leksemalar, 4) choy qaynatishga mo'ljallangan idishlarni ifodalovchi leksemalar, 5) katta hajmli idishlarni ifodalovchi leksemalar, 6) kichik hajmli idishlarni ifodalovchi leksemalar, 7) ovqatni suzib olish va yeyishga mo'ljallangan buyumlarni ifodalovchi leksemalar, 8) don mahsulotlarini yanchishga mo'ljallangan buyumlarni ifodalovchi leksemalar, 9) teri va matodan tayyorlangan idish nomlarini ifodalovchi leksemalarga alohida e'tibor qaratilgan [9; 17–75.].

I.Ismoilov, K.Meliyev va boshqalarning fikricha, "O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillariga xos soha nomlarining (ya'ni maishiy leksikaning sohalar bo'yicha nomlari – U.SH) qiyosiy-tarixiy jihatdan alohida tadqiqot temasi sifatida atroflicha tahlil etilmaganligi natijasida bu regionlardagi turkiy tillarda sohalar leksikasi, jumladan, mevali daraxt, poliz ekinlari, uy-ro'zg'or buyumlari nomlariga xos so'zlarning rivojlanishi va taraqqiyot manbalarining atroflicha aniqlanishi, tavsif qilinishi ham hal qilinmagan" [10; 3]. Shulurni e'tiborga olib, yuqoridaq olimlarning ilmiy ishida O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillarda uy-ro'zg'or buyumlari, mevali daraxtlar va poliz ekinlariga xos leksik boylik qiyosiy-tarixiy yo'nalishda lingvistik nuqtai nazardan tahlil etilgan.

Ilmiy tadqiqotda tahlilga tortilgan har bir leksik birlikning til tarixiy manbalarida uchrashi, ma'nolari, shuningdek bu nomning obyektdagi turkiy tillar shevalaridagi variantlari, sohalarga xos nomlarning ishtirokida hosil bo'lgan frazeologik iboralar, onomastik holatlarga ham e'tibor qaratilgan. Nomlarning etimologiyasi, ularning atalish usullari, fonetik, leksik-semantik va grammatic xususiyatlarn hamda ular orasida morfologik va sintaktik nuqtai nazardan yasalgan so'zlar, so'z birliklari ham ishda atroflicha yoritilgan [11; 4].

O.N. Gauchning fikricha, predmet-maishiy leksika deganda idish-tovoq, mehnat қуроллари ва уй-рўзгор буюмлари, газлама ва кийим-кечак аниқ номлари, шунингдек, уларга тегишли бўлган реквизитлар тўғрисидаги лексемалар йигиндиси тушунилади [4; 3].

O'tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib, o'zbek olimlari tomonidan leksikaning turli tematik guruhlariga mansub so'zlarni har tomonlama tadqiq qilish ishlari boshlangan edi. Maishiy leksika bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borildi. Bu yo'nalishdagi dastlabki ishlardan biri S. Ibrohimovning monografiyasidir. Ushbu yirik ilmiy asarda Farg'ona shevalaridagi kasb-hunar leksikasiga oid so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning kelib chiqish tarixi, ma'nolaridagi ro'y bergan o'zgarishlar, grammatic tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan [5]. O'zbek tilida chevarchilik leksikasi D.Dadaxonova [6], amaliy san'at leksikasi T.Tursunova [7], kiyim-kechak nomlari M.Asomiddinova [8] tomonidan har tomonlama tahlil qilingan.

XXI asrda ushbu yo'nalishdagi ishlar tizimli davom ettirilmoqda.

SH.Usmonova tomonidan oltoy tillari (jumladan o'zbek tili) va shevalaridagi maishiy leksika semantik-funksional, fonetik va struktur-morfologik aspektlarda tahlil qilingan. Olma tomonidan oshxonaga oid uy-ro'zg'or buyumlari leksik-semantik guruhiba kiruvchi 1) o't yoqish va isitish qurilmalarini ifodalovchi leksemalar, 2) olovni qorishtirish ishlataladigan buyumlarni ifodalovchi leksemalar, 3) ovqat pishirishga mo'ljallangan idishlarni ifodalovchi leksemalar, 4) choy qaynatishga mo'ljallangan idishlarni ifodalovchi leksemalar, 5) katta hajmli idishlarni ifodalovchi leksemalar, 6) kichik hajmli idishlarni ifodalovchi leksemalar, 7) ovqatni suzib olish va yeyishga mo'ljallangan buyumlarni ifodalovchi leksemalar, 8) don mahsulotlarini yanchishga mo'ljallangan buyumlarni ifodalovchi leksemalar, 9) teri va matodan tayyorlangan idish nomlarini ifodalovchi leksemalarga alohida e'tibor qaratilgan [9; 17–75.].

I.Ismoilov, K.Meliyev va boshqalarning fikricha, "O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillariga xos soha nomlarining (ya'ni maishiy leksikaning sohalar bo'yicha nomlari – U.SH) qiyosiy-tarixiy jihatdan alohida tadqiqot temasi sifatida atroflicha tahlil etilmaganligi natijasida bu regionlardagi turkiy tillarda sohalar leksikasi, jumladan, mevali daraxt, poliz ekinlari, uy-ro'zg'or buyumlari nomlariga xos so'zlarning rivojlanishi va taraqqiyot manbalarining atroflicha aniqlanishi, tavsif qilinishi ham hal qilinmagan" [10; 3]. Shularni e'tiborga olib, yuqoridagi olimlarning ilmiy ishida O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillarda uy-ro'zg'or buyumlari, mevali daraxtlar va poliz ekinlariga xos leksik boylik qiyosiy-tarixiy yo'nalishda lingvistik nuqtai nazardan tahlil etilgan.

Ilmiy tadqiqotda tahlilga tortilgan har bir leksik birlikning til tarixiy manbalarida uchrashi, ma'nolari, shuningdek bu nomning obyektdagi turkiy tillar shevalaridagi variantlari, sohalarga xos nomlarning ishtirokida hosil bo'lgan frazeologik iboralar, onomastik holatlarga ham e'tibor qaratilgan. Nomlarning etimologiyasi, ularning atalish usullari, fonetik, leksik-semantik va grammatic xususiyatlarn hamda ular orasida morfologik va sintaktik nuqtai nazardan yasalgan so'zlar, so'z birliklari ham ishda atroflicha yoritilgan [11; 4].

Natijalar

Dastlab maishiy sifati haqida. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ta'kidlanishicha, maishiy so'zi arabcha "hayotiy, hayot, turmushga oid" ma'nolariga ega bo'lgan معیشی leksemasidan olingan bo'lib, o'zbek tilida "maishatga, tirikchilikka oid" semantikasiga ega. Maishat – polisemantik so'z. Ma'nolaridan biri – "kundalik tirikchilik, yashash" [1; 526–527]. Demak, "maishiy leksika" terminiga kundalik inson hayoti, uning tirikchiligi bilan bog'liq turkum so'zlar kiradi.

"Predmet-maishiy leksika" termini lug'atning tegishli qatlamini ikki nuqtai nazardan aniqlaydi: 1) inson hayoti va faoliyatining aniq bir sohasiga, aniqrog'i kundalik hayotiga nisbatan; 2) moddiy madaniyat va kundalik turmushning predmet bo'lmagan, ya'ni harakatlar, jarayonlar, sifatlar, holatlar va boshqalarni ifodalovchi boshqa leksik guruhlariga nisbatan. Bu leksika etnografik nomlarga taalluqlidir, etnografizmlar – ma'lum bir xalqning turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyati, millati yoki hududi bilan bog'liq bo'lgan narsa va tushunchalarni bildiruvchi so'zlardir, umumtil etnografizmlari va etnografik dialektizmlarga bo'linadi. Ba'zan maishiy leksikani xalq terminologiyasiga, ya'ni qishloq aholisining turli hunarmandchilik va ishlab chiqarish faoliyatining ayrim turlari terminlariga yaqinlashtiradilar. Bunday yaqinlashuvning asosi maishiy so'zlar bir qismining bir ma'nolidir, ularning ma'lum bir hunar va xo'jalik jarayoni (aroq tortish, savatlar to'qish, tikuvchilik ishi, etikdo'zlik, yog'och idishlar tayyorlash va boshqalar) bilan bog'liqligidir, uslubiy neytrallikdir [2; 105].

«Maishiy leksika juda keng va til lug'at boyligining muhim qismidir. U eng zarur hayotiy tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Maishiy leksikaning semantik qatlamlari inson turmushining, kundalik hayotining ko'p qirralarini qamrab oladi. Ko'pgina turmush va uy-ro'zg'or buyumlar bizga qadim zamonlardan beri keladi hamda ular o'zgartirilgan bo'lsa-da, qoida tariqasida, o'z nomlarini saqlab qolganlar. Maishiy leksikani tadqiq etish nafaqat leksik-semantik xususiyatlarni, leksikonning ushbu toifasining faoliyat ko'rsatish xarakterini aniqlashga, balki xalqning moddiy madaniyati, uning hozirgi va tarixiy o'tmishi bilan tanishish imkoniyatini beradi» [3; 3].

MUHOKAMA

Yuqorida aytganimizdek, maishiy leksikaga kiruvchi so'zlar orasida uy-ro'zg'or buyumlari sirasiga kiruvchi oshxona anjomlari alohida o'rinni egallaydi, chunki "insoniyatning mayjudligi obyektiv reallik bilan, undagi moddiy va ma'naviy e'tiqodlar bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa asosiy o'rinni oziq-ovqat mahsulotlarining mo'l-ko'lligi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ijtimoiy jamiyatda mehnat qurollarini yaratib, ular bilan doimo munosabatda bo'lgan hamda turli moddiy ne'matlar – har xil to'yimli va sifatli ovqatlar yaratishni o'rgangan inson, dastlab ularni tayyorlaydigan maxsus moslamalarni, turli asbob-uskunalarni ham ijod etgan. Mazkur asbob-uskunalarni «ming bir tur» maxsus nomlar, atamalar bilan bir-biridan farqlagan» [12; 5]: o'choq, manqal, qisqich, otashkarak, tandir, rapida, chakich, qozon, tuvoq, tova, qaskon, kapkir, cho'mich, chovli, o'qlog'i, oshtaxta, supra, elak, g'alvir, pichoq, pakki, tovoq, tog'ora, choydish, choynak, koshiq, qaloq, piyola, kosa, oyoq, lagan, likop, chelak, obkash, xum, quv, quva, ko'za, qymg'on, tung, obdasta, oftoba, sanoch, mesh, qop, qanor tog'op, to'rva, xurjun, xalta, savat [13; 5–71].

O'zbek tilining maishiy leksikasini tashkil etuvchi so'zlarning etimologiyasi va grammatic tuzilishi alohida monografik tarzda L.X.G'afurova tomonidan o'rganilgan. Mutaxassis tomonidan tahlil qilingan leksik-semantik guruhlardan biri oshxona buyumlari nomlaridir [14].

M.Fayzullayeva "O'zbek taomlari bilan bog'liq an'analar" monografiyasida ta'kidlashicha, "har bir xalqning moddiy va ma'naviy xususiyatlari ularning xo'jalik iqtisodiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, u ijtimoiy tarixiy qonuniyat hisoblanadi. Masalan, oddiy bir xo'jalikni yuritishda ro'zg'or uchun zarur bo'lgan ko'plab oshxona jihozlari – asbob anjomlar kerak bo'ladi" [15; 90]. Muallif idish-tovoqlar va oshxona jihozlarning qanday materialdan yasalishiga qarab quyidagi turlarga bo'ladi: 1) cho'yandan yasalgan (qozon, ko'za, suv qaynatadigan qumg'on); 2) misdan yasalgan (qumg'on (choydush), oftoba, kosa, tovoq, tog'ora, lagan, samovar); 3) yog'ochdan (tol, tut, yong'oq, qayrag'och (gujum), olma, zarang, o'rik (zardoli), zirk daraxtlaridan) tayyorlangan (tovoq, korsan tovoq, qo'shtovoq, qoshiq, cho'mich, nonpar, kosov, qozon qopqog'i, o'qlov (o'qtayoq), elak, chovli, oshtaxta, kuvi, keli, qasnoq); 4) tol tut, sariq tol xivchin (novda)laridan to'qilgan (savat, dukcha (kichik savatcha), suzgich-chovli); 5) sopoldan tayyorlangan (piyola, kosa, choynak, xurma, ko'za, g'ul-g'ul, xum); 6) qovoqdan yasalgan (kadi) 7) uy hayvonlari terisidan tayyorlangan (mesh (suv tashish va qimiz saqlash uchun), saba (qimiz tayyorlash va saqlash uchun); tulup (tulum) (qatiq va ayron saqlash uchun), qovg'a, yorg'oq, chanoch (sanoch), qoshiqlov, non xalta, tuz xalta, supra (surpa, surfa); 8) qo'y-echki qornidan tayyorlangan (dumba yog', sariyog' uchun idish); 9) toshdan yasalgan (tovatosh (tobatosh, toshtoba); 10) matodan tikilgan (dasturxon (shol daturxon, quroq dasturxon, olacha dasturxon, nonka, lonka), qoshiqlov, nonxalta, tuzxalta, rapida, yengsa); 11) loydan yasalgan (tandir, o'choq) [16; 90–110].

Kulinaronimlar, ya'ni ovqat nomlari bilan shug'ullangan F.A.Mamatqulova ularni lingvokulturalogik xususiyatiga ko'ra quyidagi tematik guruhlarga bo'ladi: "1) oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan idish-tovoq va ichimliklar (bo'tqa, mol go'shti, salat, kompot, kefir va boshqalar); 2) oshxona anjomlari – asboblar, oshxona anjomlari, shu jumladan elektr jihozlari, idish-tovoqlar, idishlar, dasturxon buyumlari va stolni bezash uchun buyumlar, mebel (tova, stakan, vilka, dasturxon, tish kovlagich, ovqat uchun javonlar, lagan, tutqich, taxtakash, elak, qahva maydalagich, go'sht maydalagich, mikser, elektr pechka); 3) pishirish usullari (tuzlash, pishirish, qovurish, dimlash va h.k.); 4) odamlarni pishirishda tutgan o'rni bo'yicha (oshpaz, qandolat, qassob) yoki tarqatish oziq-ovqat (ofitsiant, bufetchi, barman); 5) ovqat tanovul qilayotgan shaxslar (mehmon, mijoz, ovqat istemol qiluvchi, ochko'z); 6) ovqat va ichimliklar (birinchi taomlar, ikkinchi taomlar, shirinliklar) berish tartibi bo'yicha stol odob-axloq qoidalari; 7) kun davomida ovqatlanish (tushlik, nonushta, kechki ovqat, tushlikdan keyin tamaddi, gazak, choy); 8) bayramlar (ziyofat,

ILMIY AXBOROT

kechki ovqat, basket, kofe tanaffusi); 9) ovqatlanish muassasalari (choyxona, kofeteriy, bar, bufet, oshxonan, pitseriya, restoran); 10) funksional maqsadlar uchun oziq-ovqat mahsulotlarining maxsus tanlovi (bolalar oshxonasi, parhez ovqatlar, yarim tayyor (fast food) ovqatlar, alohida ovqatlanish, muvozanatli ovqatlanish, terapevtik ovqatlanish); 11) ovqat pishirish va saqlash uchun binolar va boshqalarni kiritish mumkin bu o'ziga xos madaniy belgi sifatida o'z ahamiyatiga ega” [17; 214].

Ingliz leksikologlari tomonidan ham tilning maishiy leksika qatlami ilmiy tadqiqot obyekti sifatida tahlilga tortilgan. Bu tahlillarni qator ilmiy ishlarda ko'rish mumkin.

A.Pavlovskaya inglizlarning yashash, ovqatlanish an'analari bilan bog'liq maishiy xususiyatlari va ma'naviy dunyosi haqida so'zlovchi “Angliya i anglichane” (“Angliya va inglizlar”) asarida quyidagilarni ta'kidlaydi: “Bu yerda ayollar ayniqsa vasvasaga tushishadi (ya'ni ayollarning havasi keladi – U.SH.), chunki Angliya chinni va barcha turdag'i idishlar podsholigidir” [18; 31].

Ingliz tili maishiy leksikasining “Idish-tovoq” leksik-semantik guruhi YE.V.Ivanova tomonidan ko'rib chiqilgan. Olimaning tadqiqot ishining obyekti sifatida hozirgi ingliz tilida “Idish-tovoq” LSGga kiruvchi bir so'zli va qo'shma nominatsiyalar, shuningdek o'rganilayotgan leksemalarni o'z ichiga olgan frazeologik birliklar (FB) tanlangan. Ilmiy ishda ilk bor “Idish-tovoq” LSG misolida ingliz tili so'zlarining sistem guruhining ko'p qirrali tadqiqi o'tkazilgan va uning struktur-semantik va lingvokulturologik o'zga xosligi aniqlangan. Mustaqil ravishda ishlab chiqilgan prinsiplar asosida “Idish-tovoq nomlari ingliz-rus qisqacha tematik lug'ati tuzilgan” [19; 7]. Muallif “Idish-tovoq” leksik-semantik guruhi asosida ingliz maishiy leksikasining struktur-semantik va lingvomadiniy xarakteristikasini har tomonlama o'rgangan. Tadqiqot ishida ovqatlanish bilan bog'liq marosimlar, dasturxon tuzatish (servirovka) qoidalari ko'rsatib o'tilgan, turli tarixiy davrlarda ingliz xalqining milliy va madaniy xususiyatlarini aks ettirgan, Buyuk Britaniyaga xos bo'lgan maxsus idishlar ta'riflangan.

“O'rta asrlardan boshlab va XIX asr oxirigacha u yoki bu idish-tovoqlarga ega bo'lish va kundalik hayotda ulardan foydalanish farovonlik darajasiga (idishlar har doim moddiy farovonlikning mezon bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi), shuningdek, egasining tarbiysi va ma'lumotiga bog'liq bo'lgan. Inson qanchalik savodli bo'lgan bo'lsa, uning moliyaviy imkoniyatlari ko'p bo'lsa, kundalik hayotda unda ko'plab idish-tovoqlar yetarli hisoblangan va shu bilan u mehmonlarni hayratda qoldirishi mumkin bo'lgan. Bugungi kunda ingliz martabali jamiyatida qarama-qarshi tendensiya kuzatilmoxda: stol servirovkasi (dasturxon tuzatish) maksimal darajada soddalashtirish, dasturxon odobi masalalarida qandaydir asketizm (ehtiyojlarni qondirishdan, hayot lazzatlaridan, hamma dunyoviy ishlardan, baxt-saodatdan voz kechish)ga intilish kuzatiladi. Ba'zi “jimjimador” idishlardan foydalanish moveton (bema'ni odob) hisoblanadi va «meshchanlik tashqi ko'rinishiga ega bo'lgan yangilik» kategoriyasiga kiritiladi” [20; 155].

A.Inchning fikricha, Angliyada tarixan shunday shakllanganki, qimmatbaho metallar har doim boylik belgisi hisoblangan. Kumushdan tayyorlangan oshxona idish va anjomlari buni namoyish qilishning bir usuli edi. Oilaviy kumush shu qadar qadrlanganki, uni maxsus omborxonalarda saqlashgan [21; 51]. Mutaxassis tomonidan qoshiq, vilka, pichoq, likopcha, kosacha, taqsimcha, qadah, ryumka, stakanlar, dasturxon, sochiq (salfetka), jihozlar tagiga qo'yiladigan to'shakchalarning har xil turlari keltirilgan, Masalan, qoshiqning “quyuq sup uchun chuqur qoshiq”, “bulyon uchun qoshiq”, “sitirus (greypfrut, apelsin, limon)lar uchun qoshiq”, “muzl ichimliklar uchun qoshiq”, “yong'oq va konfetlar uchun qoshiq”, “tuz uchun qoshiqcha”, “kofe qoshiqchasi”, “shakar qoshiqchasi”, vilka (sanchqi)ning “ustritsa (yeylimadigan dengiz molyuskasi) va kokteyl uchun vilka”, “baliq uchun vilka”, “muzqaymoq uchun vilka”, “yaxna taomlar uchun vilka”, “limon va zaytun uchun vilka”, pichoqning “baliq uchun pichoq”, “go'sht uchun pichoq”, “pishloq uchun pichoq” kabi predmetlarning qo'llanishi haqida fikr yuritadi. Bundan tashqari, dasturxon zebu-ziyнати, ovqat yoki choy tortiladigan idish-oyoq (servirovka) tayyorlanadigan materiallar (chinni, keramik, gil) to'g'risida fikrlar berilgan [22; 52–92].

Ingliz teapot / choynaginiq qiziqarli tarixi juda uzoqlarga borib taqaladi. Choynak choy ichimligining o'zidan anche keyin ixtiro qilingan. Dastlab choy ochiq idishda yoki to'g'ridan-to'g'ri kosachada damlangan.

Yevropaga tea / choy bilan birga choynaklar keltiriladi. XVIII asr boshlarida Ost-Hindiston kompaniyasi choynaklarga talab ortib borayotganini payqab, ularni Xitoydan ko'p miqdorda olib kela boshladi.

Yevropa tayyorlangan birinchi china teapots / chinni choynaklar Xitoy uslubida ishlab chiqarilgan va boccaro deb atalgan. Ular og'ir, kalta va to'g'ri burunchali edi. Choynakning shakli har qanday bo'lishi mumkin edi: sakkiz burchakli, dumaloq, olmaxon, quyon yoki ekzotik hayvonlar (tuyalar, maymunlar) va boshqa ko'rinishida. Chinni choynaklarning tutqichlari chinni delfinlar, baliqlar, qushlarning boshlari bilan bezatilgan. Biroq quvontiradigan dizaynga qaramay, bu choynaklarning sifati ko'p narsani talab qildi.

XVIII asrdan boshlab choy arzonlashdi, chinni choynaklar hajmi kattalashdi.

1920-yilliga qadar choynak dizaynida funksionallik asosiy ustuvorlik kasb etdi. Ammo 1930-yillarda choynaklar poyga avtomobilari, samolyotlar va hatto tanklar ko'rinishida paydo bo'la boshladi. Faqat 1960-yillarda ular "funksional" ko'rinishiga qaytdi. 70-yillarda dizayn tajribalari uchun platsdarm bo'lib xizmat qilish uchun qaytishdi (hayvonlar va kosmik kemalar ko'rinishidagi kemalar ko'rinishidagi choynaklar keng tarqalgan edi). O'n yillar o'tgach, choynaklar XVIII–XIX asrlarning nafis dizayniga qaytdi.

Chinnidan tashqari choynaklar kumushdan ham yasalgan. Birinchi shunday silver teapot / kumush choynak 1670 yilda ishlab chiqarilgan va hozirda Londondagi Viktoriya va Albert muzeyida saqlanmoqda [23].

YE.A.Mishutinskaya va L.N.Ponomarenko o'zlarining "Sposobi popolneniya slovarnogo sostava angliyskogo yazika v XX veke" ("XX asrda ingliz tili lug'atini to'ldirish usullari") ilmiy maqolasida Djon Aytoning "A Century of New Words" [24] lug'atidan joy olgan, hozirgi ingliz tili gastronomik leksikasiga kiruvchi, "oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash yoki qayta ishlash qurilmasi" tematik guruhiga taalluqli bo'lgan fridge/muzlatkich so'zining 1926 yilda, cocktail cabinet/kokteyl shkafi leksik birligining 1933 yilda, microwave oven / mikroto'lqinli pech leksemasining 1955 yilda paydo bo'lganligini ta'kidlaydilar [25; 238–241].

XULOSA

Maishiy leksika bo'yicha o'zbek va ingliz tilshunosligida olib borilgan ilmiy ishlar obzori shuni ko'rsatadi, bu tillarda ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar asosan bir til yoki bir necha qardosh tillar miqyosida ushbu turkum leksemalar leksik-semantik, etimologik va grammatik nuqtai nazardan olib borilgan. Lekin bu yo'nalishda noqardosh, har xil tizimli, xususan, ingliz va o'zbek tillari maishiy leksikasi chog'ishtirma aspektida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan va u o'z yechimini kutmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 ga yaqin so'z va so'z birikmasi. J. II.YE-M / Mas'ul muharrir A.Madvaliyev.- Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti" davlat unitar korxonasi, 2020. – 672 b.
2. Судаков Г. В. Предметно-бытовая лексика в ономасиологическом аспекте // Вопросы языкоznания. 1986. – № 6. – С. 105–112.
3. Хайрутдинова Т.Х. **Бытовая лексика татарского языка (посуда, утварь, предметы домашнего обихода).** – Казань: Фикер, 2000. – 128 с.
4. Гауч О.Н. Семантико-этимологическая интерпретация предметно-бытовой лексики второй половины XVIII в. (на материале ТФГАТО): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тюмень, 2009. – 20 с.
5. Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. – Toshkent: Fan, 1956. – 455 b.
6. Dadaxonova T. O'zbek tilida chevarchilik leksikasi. – Toshkent: Fan, 1963. – 80 b.
7. Tursunov T. O'zbek tili amaliy san'at leksikasi. – Toshkent: Fan, 1978. – 138 b.;
8. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: Fan, 1981. – 114 b.
9. Usmanova Sh. Oltoy tillarida mushtarak maishiy leksika. – Toshkent: Fan, 1990.– 231.
10. Ismoilov I., Meliyev K. va boshqalar. O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillari leksikasidan tadqiqot (Mevali daraxt, poliz ekinlari nomlari va uy-ro'zg'or buyumlari leksikasi materiallari asosida). Toshkent: Fan, 1990. – 259 b.
11. Ismoilov I., Meliyev K. va boshqalar. – 259 b.
12. Ismoilov I., Meliyev K. va boshqalar. – 259 b.
13. Qarang.: Ismoilov I., Meliyev K. va boshqalar. – B. 5–71.
14. Gafurova L.X. Bitovaya leksika sovremennoego uzbekskogo yazika. – Tashkent: Fan, 1991. – 134 s.
15. Fayzullayeva M. O'zbek taomlari bilan bog'liq an'analar (Surxon vohasi misolida). Toshkent: YANGI NASHR, 2010. – 159.
16. Qarang: Fayzullayeva M. O'zbek taomlari bilan bog'liq an'analar (Surxon vohasi misolida). –B. 90– 10.
17. Mamatqulova F.A. Tilshunoslikda kulinaronimlarning lingvokulturalogik o'rganilishi // So'z san'ati xalqaro jurnali | Международный журнал искусство слова | International journal of word art. Серия «Филология. Социальные коммуникации». 2021, № 3 – Б. 212–218.

ILMIY AXBOROT

18. Павловская А. Англия и англичане / А. Павловская. – М.: ЛитРес: Самиздат, 2000. – 43 с.
19. Иванова Е.В. Структурно-семантические и лингвокультурные характеристики англоязычной бытовой лексики (на материале лексико-семантической группы «Посуда»): Дис. ... канд. филол. наук. – Самара, 2011. – 249 с.
20. Иванова Е.В. Структурно-семантические и лингвокультурные характеристики англоязычной бытовой лексики (на материале лексико-семантической группы «посуда». – 249 с.
21. Инч А. 1000 правил сервировки и столового этикета. Безупречные рекомендации лучшего английского дворецкого. / А.Инч, А.Херст. - М.: ACT: Астрель, 2010. – 159 с.
22. Инч А. 1000 правил сервировки и столового этикета. – 159 с.
23. <https://www.liveinternet.ru/users/mudraja/post153426685/>
24. Ayto J. A Century of New Words. Oxford: Oxford University Press, 2007. – 250 р.
25. Мишутинская Е.А., Пономаренко Л.Н. Способы пополнения словарного состава английского языка в XX веке // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2019. Том 12. Выпуск 10. – С. 238–241.